

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMY KENGASH
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TO'PCHIYEV USMON SINDOROVICH

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA
UZUMCHILIK VA VINOCHILIK TARIXI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

To‘pchiyev Usmon Sindorovich

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda uzumchilik va vinochilik tarixi..... 5

Тупчиев Усмон Синдорович

История виноградарства и виноделия в Туркестане конца XIX – начала XX века..... 25

Tupchiev Usmon Sindorovich

The history of viticulture and winemaking in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries..... 49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 53

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMY KENGASH
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TO‘PCHIYEV USMON SINDOROVICH

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA
UZUMCHILIK VA VINOCHILIK TARIXI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №V2019.4.PhD/Tar.575 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Shadmanova Sanavar Bazarbaevna tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xushvaqov Nabi Olimovich tarix fanlari doktori Mo'minova Gavxar Esanovna tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05-raqamli Ilmiy Kengashning 2023-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil "____" _____dagi ____-raqamli reestr bayonnomasi).

B.J.Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

N.N.Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.n., dotsent

Yu.A.Ergasheva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston xalqlari tarixida qishloq xo‘jaligining rivoji va taraqqiyotini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Antik davrdan boshlab Yevroosiyo xalqlarining integratsiyalashuvi iqtisodiyot va xo‘jalikda uyg‘unlashib iqtisodiy hayotda ajoyib simbiozlarning hosil bo‘lishiga olib keldi. Iqtisodiyot va xalq xo‘jaligida yangiliklar, masalan, uzumchilik va undan mahsulotlarni qayta tayyorlash jarayonlarida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonlari jadal kechishi bilan bir paytda, sayyoramizda iqtisodiy inqirozlar, oziq-ovqat taqchilligi hamda qurg‘oqchilik kabi iqlimiy o‘zgarishlar ham sodir bo‘lmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil sentyabrdagi Sammitida Barqaror rivojlanish masalasida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga binoan, dunyoda yuz berayotgan murakkab vaziyatda oziq-ovqat ta‘minoti va xavfsizligini ta‘minlashda qishloq xo‘jaligi hamda unga tutash oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini rivojlantirish orqali hal etish mumkinligi ta‘kidlangan.

Jahon xalqlarining integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonida sodir bo‘layotgan global iqlimiy o‘zgarishlar davrida oziq-ovqat xavfsizligi kabi dolzarb muammoni bartaraf etishda mamlakatimizda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan qator farmon va qarorlarda, shuningdek, yig‘ilishlarda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, bozorni sifatli, ekologik toza, arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish, eksport salohiyatini oshirish, bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, qayta ishlash orqali daromadni keskin ko‘paytirish, suvdan oqilona foydalanish chora-tadbirlari ko‘rsatilgan, qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish hamda innovatsiyalarni jalb eta oladigan fermerlar zarurligi ta‘kidlangan va bu vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda¹. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda uzumchilik va vinochilik tarixini aynan bir tarixiy geografik hudud misolida rivojlanishini o‘rganish, olingan ma‘lumotlar asosida sohani rivojlantirishga doir nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5303-son Farmoni, 2019-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4161-son Qarori, 2021-yil 28-iyuldagi “Uzumchilikni rivojlantirishda klasster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi”

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги “Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5303 сон Фармони; Президент Ш.Мирзиёев раислигида 2021 йил 24 февраль куни қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасида жорий йилда амалга ошириладиган устувор вазифалар муҳокамаси юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилиши; Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномаси // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил, 29 декабрь.

hamda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligi”ning “Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 271-son Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli dasturiy yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik tarixini o‘rganish ilmiy tadqiqotlar tizimida yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya mavzusiga aloqador bo‘lgan ilmiy adabiyotlarni o‘lka uzumchiligi va vinochiligining qadimdan to Rossiya imperiyasi mustamlaka davrigacha bo‘lgan tarixi haqida ma‘lumot beruvchi manba va adabiyotlar, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi asarlar, sovet hokimiyati yillarida yozilgan adabiyotlar, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda yaratilgan tadqiqotlarni jalb etgan holda tadqiq qilish lozim.

Birinchi guruhga oid manbalarda dastlab antik davrdan boshlab yozma manbalarda uchraydigan “Uzumchilik va vinochilik” farishtasi Dionis obrazining O‘rta Osiyoda keng tarqalgan Siyovush bilan uyg‘unlashuvi² arxeologik materiallar asosida tahlil etiladi. Islom dini joriy etilgach, vino ishlab chiqarish qat‘iy man etilgan bo‘lsa-da, Sharq miniatyuralarida davlat boshqaruvi vakillari va ziyolilarning mahalliy kulolchilik idishlarida musallas yoki vino iste‘mol qilayotgani tasvirlangan. Bundan tashqari, o‘rta asrlardagi yozma manbalarda³, shuningdek, bir qator adabiyotlarda ham uzumchilik va vinochilik tarixiga mansub materiallar uchraydi⁴.

Ikkinchi guruhga oid adabiyotlarga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘lkaga kelgan qishloq xo‘jaligi mutaxassislari, tabiatshunos olim va boshqa turli soha vakillaridan N.A.Mayev, A.Gubarevich-Radobilskiy, A.I.Shaxnazarov, V.Yuferev, A.I.Dobrosmislov, V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksanderlar asarlarini kiritish mumkin⁵.

² Хушваков Н.О., Богомоллов Г.И. Образ Сиёвуша в археологических материалах из Яккабага (Узбекистан). Научные труды Республиканского института высшей школы. Исторически и психолого-педагогические науки. Сборник научных статей. Выпуск 22. Часть 2. – Минск: РИВШ, 2022. – С. 238-247.

³ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннаҳр. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камалиддинов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011. – 396 б.; Поло М. Книги о разнообразии мира. rus.azattyq.org>a/marco_polo_travels...mongolia...; Шарафуддин али Яздий. n.ziyouz.com>books/tarixiy... Ali Yazdiy Zafaroma.; Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарк, 2002. – 86 б.

⁴ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Ташкент: Ўзбекистон, 1996. – 422 с.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарк, 2000. – 365 б.; Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд: 2001. – 189 б.; Муртазаева Р.Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 675 б.; Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. – 279 б.; Ҳайдаров Ҳ., Усмонов Қ. Жиззах тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2009. – 285 б.; Ртвеладзе Э.В. Римляне на трассах Великого шелкового пути <http://fati.uz/site/download...>

⁵ Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент: Издание Туркестанского Отдела Императорского Российского Общества Садоводства, 1886. – 82 с.; Путеводитель по Туркестану и Среднеазиатской железной дороги (под ред. Д.И.Дмитриева – Мамонова). – Санкт-Петербург, 1903. – 446 с.; А.Губаревич-Радобилский. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – 201 с.; Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – 512 с.; Юферев В. Хозяйство Сартов Ферганской области. – Ташкент, 1911. – 75 с.; Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: Типолитография О.А.Порцева, 1912. – 521 с.; Заорская В.В., Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград, 1915. – 557 с.

Ularda Turkiston uzumchiligi va vinochilik sohasining tarixiy rivojlanish bosqichlari qisman qiyosiy tahlil etilgan holda, asosiy e'tibor mavzuni iqtisodiy jihatdan yoritishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu mualliflarning adabiyotlarida o'lkadagi mahalliy uzum navlari, bog'dorchilik sohasidagi an'anaviylik va undagi o'zgarishlar, o'lkaga chetdan yangi uzum navlarining keltirilishi va ularning transformatsiya jarayonlari, vinochilik sanoatining vujudga kelishi va uning rivoji, uzum va vino mahsulotlarining ichki hamda tashqi savdosi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Uchinchi guruh adabiyotlariga sovetlar davrida yaratilgan O'zbekiston SSR tarixi 1-kitobi, shuningdek, V.Lavrentev, M.A.Gerasimov, K.E.Jitov va X.Z.Ziyayev, F.S.Xasanov va M.I.Vekselman kabi mualliflarning tadqiqotlari⁶ kiradi. Ushbu davr adabiyot hamda ilmiy tadqiqotlarida o'rganilayotgan davr o'lka siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixi yoritilishi asnosida, o'lka yalpi mahsulotlari hajmida uzum mahsulotlari ulushi, Rossiya bosqiniga qadar O'rta Osiyo xonliklarida yetishtirilgan uzum navlari, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan mahalliy mehnat qurollari turlari, O'rta Osiyo bozorlarida savdo-sotiq masalalari, o'lkaning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo aloqalari, eksport va import mahsulotlar turlari, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida vino ishlab chiqaruvchi korxonalarining umumiy soni, ularning o'rtacha ishlab chiqarish quvvatlari kabi tadqiqotga oid ba'zi masalalarga e'tibor qaratilgan.

To'rtinchi guruhga oid mustaqillik davri tadqiqotlariga A.E.Kuraxmedov⁷, X.S.Yusupov va R.K.Akchurin hamda A.X.Tashkenboyevlar⁸, K.K.Pardayev⁹, S.B.Shadmanova¹⁰, B.Alimjonov¹¹ va J.Xayitovlarning¹² ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotlarning ayrim bob va paragraflarida Samarqand viloyati uzumchiligi va vinochiligi tarixi, mustamlaka hukumatning o'lka qishloq xo'jaligida olib borgan bir yoqlama siyosati va uning uzumchilikka ta'siri, o'lka uzumchiligi

⁶ История Узбекской ССР. Под ред. М.Г.Вахабова., В.Я.Непомнина., Т.Н.Кары-Ниязова. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1956. – Том 1. – 495 с.; Лаврентьев В. Капитализм в Туркестане. Буржуазная колонизация Средней Азии. – М.: Изд-во Комм. Акад., 1930. – 160 с.; Герасимов М.А. Технология вина. – М., 1959. – 630 с.; 1969; Житов К.Э., Зияев Х.З. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне октября. – Ташкент: Издательство “Фан” Узбекской ССР, 1973. – 233 с.; Хасанов Ф.С. Развитие торгового земледелия в Туркестане во второй половине XIX – начале XX веков (По материалам Сырдарьинской области): автореф. дис. ... канд. ист. наук: ВАК РФ 00.00.00. – Ташкент, 1984. – 30 с.; Вексельман М.И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент: Фан, 1987. – 143 с.

⁷ Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начала XX вв.(по материалам «Туркестанского сборника»). Специальность 07.00.02 – История Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2001. – С. 15, 18.

⁸ Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – 189 б.

⁹ Пардаев К.К. Ўрта Зарафшон (Миёнқол) воҳасининг XIX-XX аср бошларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фанлари номзодлиги диссертацияси. – Тошкент, 2003. – 166 б.

¹⁰ Шадманова С.Б. Даврий матбуотда Туркистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий аҳволи масалалари (1870-1917 й.й.). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2011. – 382 б.; Шадманова С.Б. Туркистон тарихи – матбуот кўзгусида. – Тошкент: Янги нашр, 2011. – 295 б.; Шадманова С.Б. Матбуотда ичкиликбозлик муаммолари / Марказий Осиё халқлари манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари. 5 китоб. – Тошкент, 2013. – Б. 414-419.

¹¹ Алимжанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX – начало XX вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Санкт-Петербург, 2016. – 376 с.

¹² Хайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – 161 б.

masalalarining Turkiston nashriyot matbaachiligida yoritilishi, o'lkaga yangi uzum navlarining keltirilishi va ularning transformatsiyasi, vino zavodlarining tashkil etilishi, uzum va vino mahsulotlari savdosi kabi tadqiqotimizga oid ayrim masalalar yoritib o'tilgan.

Beshinchi guruhga mansub mavzuga doir xorijiy tadqiqotlardan V.V.Sokolov, Ye.A.Simanovich, Ye.A.Glushenko, Ye.V.Dolgix, Stefani Xonchellarning ilmiy ishlari va maqolalarini keltirish mumkin¹³. Mazkur mualliflarning tadqiqot va maqolalarida Rossiya imperiyasining o'lka iqtisodiyotini rivojlantirishda olib borgan bir yoqlama siyosati, o'lkaning asosan imperiya uchun xomashyo manbai bo'lib qolganligi, shuningdek, ushbu davrda o'lkada uzumchilik va vinochilik sohasida qo'llanilgan o'lchov birliklari mazmuni hamda uzumchilik va vinochilikning tarixiy rivojlanish bosqichlari kabi masalalar qisman o'rin olgan bo'lib, ulardan ham tadqiqot davomida foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Ilmiy ish mavzusi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda uzumchilik va vinochilik sohalari tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turkiston aholisining kundalik hayoti, qishloq xo'jaligida uzumchilik va uzumni qayta ishlashdan hosil bo'lgan mahsulotlarning tutgan o'rnini ko'rsatib berish;

ushbu davrda Turkiston hududida mahalliy uzumchilik ahvoli, o'lkaga chetdan yangi uzum navlarining keltirilishi, agro-madaniy yangiliklar hamda ularning transformatsiyalashuvini tadqiq qilish;

uzumning yangi navlarining kirib kelishi va ularning mahalliyashtirilishi, shu asnodda vinochilik sanoatining vujudga kelishi, uni tashkil etishdagi shart-sharoitlarni manbalar asosida o'rganish;

o'lkada yetishtirilgan uzum va undan tayyorlangan vino mahsulotlari narx-navosi, uzum va vino mahsulotlarining o'lka ichki hamda tashqi bozorlaridagi savdosi kabi masalalarni yoritish;

tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalarga tayangan holda O'zbekistonda uzumchilik va vinochilik sohasining zamonaviy rivojiga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uzumchilik va qayta ishlangan mahsulotlar hamda vinochilik sanoati rivoji tarixi muammolarini o'rganish tashkil etadi.

¹³ Соколов В.В. Туркестанский край в составе Российской империи, вторая половина XIX в. – февраль 1917 г.: Проблемы социально-экономического и общественно-политического развития: автореф. дисс. доктор, ист. наук. – М., 2002. – 44 с.; Симанович Е.А. Развитие виноградарства и виноделия на Северном Кавказе во второй половине XIX в. – 1914 г. Специальность 07.00.02 – Отечественная история. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Краснодар, 2005. – 28 с.; Глушенко Е.А. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. – М.: Центрполиграф, 2010. – 234 с.; Долгих Е.В. К истории повседневности: очерк потребления спиртных напитков в России (Конце XV в.-1936 г.) // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2015. – № 5/6. – С. 14-63; <https://www.caa-network.org/archives/22267/istoriya-pyushhego-mogola-kultura-alkogolya-u-timuridov-czentralnoj-azi>.

Tadqiqotning predmeti XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda uzumchilik va vinochilikning ahvoli, sohada yuz bergan o‘zgarishlar, uzumchilik va vinochilikning o‘lka aholisi ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada fanlararo yondashuv, ilmiylik, tarixiylik va xolislik tamoyillari, shuningdek, tarixiy-qiyosiy tahlil va tizimlashtirish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzumchilik hamda vinochilik masalalarining tarixiy rivojlanish bosqichlariga o‘lkada yetishtirilib kelinayotgan uzumning mahalliy navlari va ularning nomlari – chillaki, charos (qizil, oq va sariq navlari bo‘lgan), oq va qora kishmish, dombrobi, mayizi, kattaqo‘rg‘oni, doroyi, oq va pushti husayni, toyifi, sahobi, g‘iloni, ofpari, buvaki, maska, nabishi, toifiyning Xojaaxrori va Qarshi navlari, sultoni, shakarangur, alvoni, sirkoi, shivilg‘oni va boshqa shu kabi navlariga aniqlik kiritilib, o‘lkaga chetdan keltirilgan aleatiko, aligote, arevshat, bayan sheriy, budeshuri tetra, magarach, qora karinka, risling, saperavi, venger muskati kabi yangi uzum navlari va mahalliy navlar bilan chatishtirish natijasida transformatsiyalashuv jarayonlari kechganligi dalillangan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga uzumning aleatiko, aligote, arevshat, bayan sheriy, budeshuri tetra, magarach, qora karinka, risling, saperavi, venger muskati kabi 40 dan ortiq navi olib kelganligi asoslangan;

o‘lkada uzumchilik va vinochilik sohasining rivojlanish jarayonida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi arzon xomashyo manbai va rus sanoati mollari sotiladigan qulay bozorga aylantirilganligi, mustamlaka hukumatning o‘lkada agrar sohada olib borgan bir yoqlama siyosati, ya’ni paxta yakkahokimligi siyosati qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarining qisqarishi va bu holatda ularning inqiroziga sabab bo‘lganligi kabi ziddiyatlar, ekin navlarini mahalliyashtirishda, yerni to‘yintirish uchun o‘g‘itlarni qo‘llash, zamonaviy texnikani xo‘jalik tarmog‘iga olib kirish, yangi tarmoqlarni shakllantirish kabilarda kamchiliklar, soha rivojining o‘ziga xos yangi uzum navlarini yaratishda mahalliy navlar bilan birga Qrim, Kavkaz, Yevropa va Amerikadan keltirilgan yangi navlarni, shuningdek, yovvoyi uzum navlari bilan mahalliy va Yevropa navlarini chatishtirish yo‘li bilan bog‘liq seleksiya ishlari tendensiyalari ochib berilgan;

uzumchilik va vinochilik sanoati rivojlanishida rusiyzabon mutaxassislar bilan birga mahalliy aholi vakillarining ham roli katta bo‘lganligi hamda sohaning Turkiston o‘lkasi aholisi va Rossiya imperiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Ushbu davrda qishloq xo‘jaligida uzumchilik sohasining ahvoli, an’anaviylik va undagi o‘zgarishlar, yangi uzum navlarining o‘lkaga kirib kelishi va ularning transformatsiyalashuv jarayonlari, o‘lkada vinochilik sanoatining tashkil topishi va rivojlanishi kabi masalalarni yoritishda davriy tadqiqot ishlari hamda “Turkiston to‘plami”da jamlangan maqolalardan foydalanildi, tadqiqotlarda mavzuning kam o‘rganilgan tomonlari O‘zbekiston Milliy arxividan olingan ma’lumotlar bilan to‘ldirildi va ular ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Ko‘rib chiqilgan manba va adabiyotlar tahlili asosida qadimdan XX asr boshlarigacha uzumchilik xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri ekanligi, uzum hosilini qayta ishlash orqali vino ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi, uzum hosili yetishtirish va vino mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sinh dinamikasi, sohadagi yutuq va muammolar o‘rganilib, tadqiqot natijasida olingan ilmiy ma‘lumotlardan qishloq xo‘jaligi tarixini o‘qitishda foydalanishga doir, shuningdek, mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarida tan olingan yondashuv hamda usullarning qo‘llanilgani, adabiyotlarning manbaviy ahamiyati, “Turkiston to‘plami”da jamlangan maqolalar, arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi, mavjud voqelikka mos kelishini aniqlash, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda uzum va uzum mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning oldini olishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish, mamlakat eksport salohiyatini uzum va vino mahsulotlari orqali oshirishga oid nazariy-uslubiy xulosalarini ishlab chiqishda amaliy yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning yana bir amaliy ahamiyati dissertatsiyada umumlashtirilgan ma‘lumotlar asosida uzumchilik va vinochilik tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar hamda istiqbolli loyihalar ijrosini ta‘minlash, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini yanada mustahkamlash, shuningdek, O‘zbekistonda uzumchilik bilan bog‘liq an‘anaviy tajribalar aks etgan darslik, o‘quv qo‘llanma, risola, monografiya va yo‘l xaritalari yaratishda foydalanish imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turkiston o‘lkasi uzumchiligi va vinochilik tarixini o‘rganish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

uzumchilik hamda vinochilik masalalarining tarixiy rivojlanish bosqichlariga o‘lkada etishtirilib kelinayotgan uzumning mahalliy navlari va ularning nomlari – chillaki, charos (qizil, oq va sariq navlari bo‘lgan), oq va qora kishmish, dombrobi, mayizi, kattaqo‘rg‘oni, doroyi, oq va pushti husayni, toyifi, sahobi, g‘iloni, ofpari, buvaki, maska, nabishi, toifiyning Xojaaxrori va Qarshi navlari, sultoni, shakarangur, alvoni, sirkoi, shivilg‘oni va boshqa shu kabi navlariga aniqlik kiritilib, o‘lkaga chetdan keltirilgan aleatiko, aligote, arevshat, bayan shery, budeshuri tetra, magarach, qora karinka, risling, saperavi, venger muskati kabi yangi uzum navlari va mahalliy navlar bilan chatishtirish natijasida transformatsiyalashuv jarayonlari O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqqimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yil 5-dekabrda 02-31-1983-son xati). Bu esa, uzumchilik an‘analari, qadimiy tajribalar aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotining bir bo‘lagi ekanligini ko‘rsatib, respublikada uzumchilik sohasini rivojlantirish orqali aholini sifatli oziq-ovqat

mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ushbu davrda o'lkada xali shisha ishlab chiqarish u darajada keng yo'lga qo'yilmagan va uni ishlab chiqarish katta mablag' talab etar edi. Bu esa o'z navbatida agar vinoni shishada qadoqlaydigan bo'lsa vino ishlab chiqarish zavodlarga qimmatga tushgan holda, ularning narxining oshib ketishiga sabab bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondi faoliyatida foydalanilgan (Xalqaro "Oltin meros" xayriya jamoat fondining 01-27-31/03-23-son ma'lumotnomasi). Natijada, uzumchilik hamda vinochilik haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va rivojlantirishga, shuningdek, agroturizm va ekoturizm sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qaror hamda loyihalar ijrosini ta'minlashga, mamlakatimizning xalqaro maydonda jozibadorligi va o'ziga xosligini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan;

uzumchilik va vinochilik sanoati rivojlanishida rusiyzabon mutaxassislar bilan birga mahalliy aholi vakillarining ham roli katta bo'lganligi hamda sohaning Turkiston o'lkasi aholisi va Rossiya imperiyasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini Jizzax viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 30-martdagi 02-10/958-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishda yoritilgan Jizzax viloyati uzumchiligi, uzumchilik bilan shug'ullangan aholi qatlami turmush-tarzi, uzumchilikda qo'llanilgan mehnat qurollari kabi viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixini aks ettiruvchi ma'lumot va tarixiy manbalar, O'zbekiston Milliy arxividan olingan fotosuratlar Jizzax viloyat tarixi va madaniyati muzeyidagi ekskursiya matnlarini yangilanishi va muzey fondini boyitishda, shuningdek muzeyga tashrif buyuruvchilarning bu borada yanada to'liqroq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta (6 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda), 6 ta Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida maqolalar tarzida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiy tuzilishiga ko'ra kirish, uch bob, yettita paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "Kirish" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida uzumchilik va vinochilik tarixi manbashunosligi hamda tarixshunosligi” deb nomlangan birinchi bobining birinchi paragrafida muammoning manbashunosligi tahlil qilingan. Dissertatsiyaning manbaviy asosini 594 tomдан iborat “Turkiston to‘plami”ning 20 dan ortiq sonlarida jamlangan bir qator mualliflarning maqolalari, ma’lumotnoma va xabarnomalari tashkil etadi¹⁴. Ularda Turkiston o‘lkasi aholisi uzumchiligi va uning o‘ziga xos an’anaviy tarixiy tajribalari, o‘lkada mavjud mahalliy hamda chetdan keltirilgan yangi uzum navlari, uzum va vino mahsulotlari savdosi, vino tayyorlovchi korxonalar faoliyati, qishloq xo‘jaligining ushbu sohasi bilan shug‘ullanuvchi aholi qatlami turmush tarzi kabi ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

Xususan, I.M.Slutskiyning maqolasida Samarqand viloyati uzumchiligi tarixi, viloyatda vinochilik sanoatining yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, uzum va undan olinadigan hosil miqdori haqidagi ma’lumotlar bilan birga Rossiyaning ushbu soha eng rivojlangan hududlari haqidagi ma’lumotlar atroflicha yoritib berilgan¹⁵. A.Pulloning maqolasida¹⁶ o‘lkaga jalb etilgan mutaxassislarning qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilik sohasidagi faoliyatlari, uzumning yangi navlari transformatsiyasi, ayrim mahalliy uzum navlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. A.Timayevning maqolasida¹⁷ Rossiya va Yevropada o‘lka vinolari shuhrati tavsiflangan bo‘lsa, Musofirning maqolasida esa o‘lkada yetishtirilgan uzum va

¹⁴ О винограде и виноделия в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Том 57, 1872. – 188 с.; Регель А. Садоводство в Туркестанском крае. Туркестанский сборник. – Том 349, 1883. – 300 с.; Невеский М. Список деревьями и кустарникам, произрастающим в Самаркандской области // Туркестанский сборник. – Том 525, 1894. – 204 с.; Вирский М.И. Виноградарство в Самаркандском уезде. Библиограф. Заметка // Туркестанский сборник. – Том 523, 1896. – 197 с.; Иванов Н.И. О культуре винограда // Туркестанский сборник. – Том 521, 1896. – 202 с.; Виноделие в Туркестане // Туркестанский сборник. – Том 522, 1896. – 191 с.; О культур винограда в г. Ташкента и его окрестностей. Посвящается Н.И.Иванову // Туркестанский сборник. – Том 521, 1896. – 202 с.; Тимаев К. Среднеазиатское виноградарство // Туркестанский сборник. – Том 520, 1896. – 196 с.; Слуцкий И. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. – Том 527, 1897. – 205 с.; Вирский М.И. Виноградарство в Самаркандском уезде. Библиограф. Заметка // Туркестанский сборник. – Том 433, 1907. – 194 с.; Мусофир. Среднеазиатское виноградарство // Туркестанский сборник. – Том 433, 1907. – 194 с.; Вербов. Несколько слов о наших виноградниках // Туркестанский сборник. – Том 467, 1908. – 176 с.; Пулло А. К вопросу о виноградарстве. Какие сорта винограда местные или европейские преимущественно желательны в крае для виноделия // Туркестанский сборник. – Том 463, 1908. – 198 с.; Пулло А. К вопросу о виноградарстве // Туркестанский сборник. – Том 467, 1908. – 187 с.; Сельскохозяйственная промышленная выставка. Туркестанский сборник. – Том 476, 1908. – 213 с.; Стекольников И. Виноградарство и виноделие в Туркестане // Туркестанский сборник. – Том 454, 1908. – 184 с.; Тимаев К. Сельскохозяйственная, промышленная выставка // Туркестанский сборник. – Том 476, 1908. – 213 с.; Верховский Н.П. Вывоз сушеных фруктов и виноградного вина // Туркестанский сборник. – Том 536, 1909. – 184 с.; Вывоз сушеных фруктов виноградного вина // Туркестанский сборник. – Том 536, 1909. – 184 с.; Григорьев С. Болезни виноградной лозы в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Том 537, 1909. – 206 с.; Танатар И. О мероприятиях по борьбе с грибными болезнями винограда в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Том 537, 1909. – 196 с.; Шредер Р. Вывоз Туркестанских фруктов в Оренбург – Ташкентской железной дороги // Туркестанский сборник. – Том 536, 1909. – 184 с.; Робинзон В. Фруктовые вагоны Ташкентской дороги (к мероприятиям для более успешной перевозки фруктов) // Туркестанский сборник. – Том 535, 1909-1910. – 195 с.

¹⁵ Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. – Том 527, 1897. – С. 31, 5.

¹⁶ Пулло А. К вопросу о виноградарстве // Туркестанский сборник. – Том 467, 1908. – С. 59-60; Хайитов Ж.Ш. Туркестонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 74-75; Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 237-239; Глушенко Е.А.Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. – М.: Центрполиграф, 2010. – С. 234.

¹⁷ Тимаев А. Средне-Азиатское виноградарство // Туркестанский сборник. – Том 520, 1896. – С. 110.

uzum mahsulotlarining xorijga eksporti kabi masalalar o‘rin olgan¹⁸. A.Regel va M.I.Virskiylarning maqolalarida Turkiston o‘lkasi viloyatlari bozorlarida uzumning narx-navolari haqidagi ma’lumotlar o‘z aksini topgan¹⁹.

Shuningdek, mazkur to‘plamda jamlangan maqolalarda o‘rganilgan davrda bog‘dorchilikda katta tajribaga ega bo‘lgan mahalliy mutaxassislardan Nayman Xoji, Muhitdin Xoja Muhammad Hakim Xoja Eshonov, Samarqand viloyatidan Mirzarif Sayfutdinov; Sirdaryo viloyatidan Abduvalixon Rahmatxonov, Mullo Mirsolih Yusupjonov; Farg‘ona viloyatidan Xudoyqul Karimboyev, Xon Muhammadboy Niyazbayev, Izzatullo Qori Mullaboyevlarning nomlari ham keltirib o‘tilgan²⁰.

Ammo mazkur maqolalarda Turkiston o‘lkasi uzumchiligining tarixiy rivojlanish bosqichlari to‘liq qamrab olinmagan bo‘lib, mavzuning ushbu tomonlarini ochiqlashda A.I.Shaxnazarov, N.A.Mayev, A.I.Dobrosmislov, V.V.Zaorskaya, K.A.Aleksander kabi davr mualliflarining manbaviy ahamiyatga ega tadqiqotlarida hamda arxiv materiallarida keltirilgan ma’lumotlar muhim sanaladi.

Xususan, N.A.Mayevning tadqiqotida ushbu davrda Turkiston o‘lkasida iqtisodiy jihatdan paxtachilik va ipakchilikdan keyin vinochilik eng katta muvaffaqiyatga erishgan sohalardan bo‘lganligi ta’kidlansa²¹, A.I.Dobrosmislov tadqiqotida Toshkentning rus bosqiniga qadar bo‘lgan tarixiy geografik tavsifi, shuningdek, Rossiya bosqini va mustamlaka davrida o‘lkada dehqonchilik va hunarmandchilik, bog‘dorchilikda uzumchilik, vinochilik sanoati, vino mahsulotlari ishlab chiqarish va uning savdosi kabi masalalar atroflicha yoritilgan²².

Shuningdek, arxiv jamg‘armalaridagi ishlarda o‘lkada, xususan Samarqand viloyatida Filatov, Proxovskiy va Tolochinov; Toshkentda P.Shevchenko, N.I.Pervushin, A.Moshe, N.I.Ivanov, Ya.Ya.Ivanov, I.Barsukov, I.P.Belokolokov va Farg‘ona viloyatida N.I.Ivanov firmasi hamda arman tadbirkori Seklyar Kucharov kabi vinochilik bilan shug‘ullangan soha mutaxassislari nomlari ham qayd etilgan²³.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida mavzu tarixshunosligi tahlil etilgan bo‘lib, ishga oid tadqiqotlarni davriy jihatdan besh guruhga: 1) o‘lka uzumchiligi va vinochiligining qadimdan to Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga qadar bo‘lgan tarixiga oid adabiyotlar; 2) Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida yaratilgan tadqiqotlar; 3) sovet hokimiyati yillaridagi tadqiqotlar; 4) mustaqillik davridagi ilmiy izlanishlar; 5) xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlarga ajratish mumkin.

1-guruhda antik davrdan boshlab yozma manbalarda uchraydigan adabiyotlar, arxeologik manbalar va Gretsiya afsonalaridagi “Uzumchilik va vinochilik” farishtasi

¹⁸ Мусофир. Среднеазиатское виноградарство // Туркестанский сборник. – Том 433. – С. 9-14; А.Губаревич-Радобыльский. Экономический очерк Бухары и Туниса. – Санкт-Петербург, 1905. – С. 96-97.

¹⁹ А.Регель. Садоводство в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Том 349, 1883. – С. 349; Вирский М.И. Виноградарство в Самаркандском уезде. Библиограф. Заметка // Туркестанский сборник. – Том 433, 1907. – С. 55.

²⁰ О культуре винограда // Туркестанский сборник. – Том 521, 1896. – С. 56.

²¹ Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент: Издание Туркестанского Отдела Императорского Российского Общества Садоводство, 1886. – С. 49.

²² Добромыслов А.И. Ташкент прошлым и настоящим. Исторической очерк. – Ташкент, 1912. – С. 371-398.

²³ О‘zМА, I.36-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3545-ish, 219-varaq; О‘zМА, I.7-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3178-ish, 141-142 varaq; О‘zМА, I.1-jamg‘arma, 2-ro‘uxat, 821-ish, 23-varaq.

Dionis obrazining O'rta Osiyoda keng tarqalgan Siyovush bilan uyg'unlashuvi²⁴ arxeologik manbalar asosida tahlil etiladi. Islom dini kirib kelishi bilan vinochilik qat'iy man etilgan ichimliklar toifasiga kirsada, Sharq miniatyuralarida davlat boshqaruvi vakillari va ziyolilarning o'ziga xos idishlarda vino iste'mol qilayotgan holatlari tasvirlangan. Bundan tashqari o'rta asrlardagi yozma manbalarda²⁵, shuningdek, bir qator adabiyotlarda ham uzumchilik va vinochilik tarixiga mansub materiallar uchraydi²⁶.

Ushbu davrda yashab ijod etgan turli soha rus mualliflaridan N.A.Mayev, A.Gubarevich-Radobilskiy, A.I.Shaxnazarov, V.Yuferev, A.I.Dobrosmislov, V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksander, M.V.Lavrovlarning tadqiqotlari 2-guruhga oid bo'lib, ularda asosan Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri qamrab olingan. Ammo mazkur tadqiqotlarda bog'dorchilik sohasi tarixiy rivojlanish bosqichlariga oid ma'lumotlar uchramaydi.

Mavzu tarixshunosligiga oid A.I.Shaxnazarov va V.Yuferevlarning tadqiqotlarida Turkiston o'lkasi viloyatlarida uzum yetishtirish va uzum mahsulotlarini tayyorlash bo'yicha o'rinlari, shuningdek, bu boradagi o'sish dinamikalar tahlili keltirilgan bo'lib, unga ko'ra Samarqand viloyati birinchi, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari esa keyingi o'rinlarda bo'lgan²⁷.

A.I.Shaxnazarov va V.Yuferevlar nazaridan chetda qolgan uzumchilikni rivojlantirishda an'anaviy tajribalarni keyingi avlodlarga yetkazib kelayotgan mahalliy aholi vakillarining ham xizmatlari beqiyos ekanligi davr tadqiqotchilaridan N.A.Mayev maqolasida o'z aksini topgan²⁸.

Shuningdek, N.A.Mayev, A.I.Dobrosmislov, V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksander, M.V.Lavrov tadqiqotlarida uzumchilikdan tashqari o'lka viloyatlarida tashkil etilgan dastlabki vino zavodlari va ularning ta'sischilari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan²⁹.

3-guruhga oid tadqiqotlarga M.G.Vaxabov, V.Ya.Nepomnin, T.N.Qori-Niyazovlar muallifligida chop etilgan O'zbekiston SSR tarixi 1-kitobi, shuningdek, V.Lavrentev, M.I.Vekselman, M.A.Gerasimov, K.E.Jitov va X.Z.Ziyayev, F.S.Xasanovlarning

²⁴ Хушваков Н.О., Богомолов Г.И. Образ Сиёвуша в археологических материалах из Яккабага (Узбекистан). Научные труды Республиканского института высшей школы. Исторически и психолого-педагогические науки. Сборник научных статей. Выпуск 22. Часть 2. – Минск: РИВШ, 2022. – С. 238-247.

²⁵ Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камалиддинов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011. – 396 б.; Поло М. Книги о разнообразии мира. rus.azattyq.org>a/marco_polo_travels...mongolia...; Шарафуддин али Яздий. n.ziyouz.com.books / tarixiy...Ali Yazdiy Zafarnoma; Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 86 б.

²⁶ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX – начала XIII вв. – Ташкент: Узбекистан, 1996. – 422 с.; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 365 б.; Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – 189 б.; Муртазаева Р.Ҳ ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 675 б.; Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. – 279 б.; Ҳайдаров Х., Усмонов Қ. Жиззах тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2009. – 285 б.; Ртвеладзе Э.В. Римляне на трассах Великого шелкового пути / <http://fati.uz>site/download...>

²⁷ Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 237-239; Юфев В. Хозяйство Сартов Ферганской области. – Ташкент, 1911. – С. 47-50.

²⁸ Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. Ташкент: Издание Туркестанского Отдела Императорского Российского Общества Садоводства, 1886. – С. 48-50.

²⁹ Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: Типолитография О.А.Порцева, 1912. – 521 с.; Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент: Издание Туркестанского Отдела Императорского Российского Общества Садоводства, 1886. – С. 48-50.

adabiyot va ilmiy tadqiqotlari kiradi. Ularda Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi mustamlakachilik siyosati va uning asosiy yo'nalishlari yoritilishi asnosida, tadqiq etilayotgan mavzuning ayrim tomonlariga e'tibor qaratilgan.

Masalan, M.G.Vaxobov, V.Ya.Nepomnin va T.N.Qori-Niyozovlar muallifligida chop etilgan kitobda o'lkada uzumchilik paxta, g'alla va chorva mahsulotlari yetishtirishdan keyingi o'rinda bo'lganligi, Rossiya bosqiniga qadar O'rta Osiyo xonliklarida yetishtirilgan uzum navlari, qishloq xo'jaligida ishlatiladigan mahalliy mehnat qurollari turlari haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, ushbu kitobda XVIII-XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo bozorlari va undagi savdo-sotiq masalalari, o'lkaning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo aloqalari, eksport va import mahsulotlar turlari haqidagi ma'lumotlar ham yoritib o'tilgan³⁰.

4-guruhga oid adabiyotlarni mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Ularga hammualliflar X.S.Yusupov, R.K.Akchurin va A.X.Tashkenboyevlarning monografiyasini, A.E.Kuraxmedov, K.K.Pardayev, B.Alimjonovlarning tadqiqotlarini, shuningdek, S.B.Shadmanovanning ilmiy ishlarini hamda J.Xayitovning monografiyasini kiritish mumkin.

X.S.Yusupov, R.K.Akchurin, A.X.Tashkenboyevlarning monografiyasida³¹ Samarqand viloyati uzumchiligi va vinochiligining qadimdan to 2000-yillargacha bo'lgan davri tarixi yoritilgan bo'lsa, A.E.Kuraxmedovning tadqiqotida³² XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Samarqand viloyatining iqtisodiy va madaniy hayoti tarixi tadqiq etilgan bo'lib, viloyatda vino zavodlarining tashkil etilishi, ularning ishlab chiqarish quvvati, shuningdek, mustamlaka hukumatning qishloq xo'jaligida olib borgan bir yoqlama siyosati va uning uzumchilikka ta'siri kabi tadqiqotimizga oid masalalarga ham e'tibor qaratilgan.

B.Alimjonovning tadqiqotida³³ o'lka iqtisodiy hayotida ahamiyati jihatdan paxtachilik va ipakchilikdan keyingi o'rinda uzumchilik va vinochilik turganligi, uzumchilik va vinochilik o'lkaning boshqa viloyatlariga nisbatan Samarqandda keng rivojlanganligi, mustamlaka hukumatning agrar sohada olib borgan bir yoqlama siyosati natijasida Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida bog'dorchilik va uzum maydonlari ko'lamining qisqarishi va ular narxining oshishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelganligi yoritib o'tilgan.

Shuningdek, S.B.Shadmanovanning tadqiqotlarida³⁴ o'lka uzumchiligi masalalarining Turkiston davriy matbuotida yoritilishi hamda ichkilikbozlik masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, J.Xayitov monografiyasining ikkinchi bob

³⁰ История Узбекской ССР / Под ред. М.Г. Вахабова., В.Я. Непомнина., Т.Н. Кары-Ниязова. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1956. – Том 1. – С. 29-30, 14-16, 212.

³¹ Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – 189 б.

³² Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начала XX вв.(по материалам «Туркестанского сборника»). Специальность 07.00.02 – История Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2001. – С. 14-15.

³³ Алимжанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина 19-начало XX вв.) диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Санкт-Петербург, 2016. – 376 с.

³⁴ Шадманова С.Б. Даврий матбуотда Туркестоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий аҳволи масалалари (1870-1917 й.). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертацияси. – Тошкент, 2011. – 382 б.; Шадманова С.Б. Туркестон тарихи – матбуот кўзгусида. – Тошкент: Янги нашр, 2011. – 295 б.; Шадманова С.Б. Матбуотда ичкиликбозлик муаммолари / Марказий Осиё халқлари манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари. 5 китоб. – Тошкент, 2013. – Б. 414-419.

va paragraflarida o'rganilgan davr o'lka uzumchiligi va undagi o'zgarishlar, yangi uzum navlarining keltirilishi va ularning transformatsiyasi, o'lkada vinochilik sanoatining vujudga kelishi, uzum va vino mahsulotlari savdosi kabi masalalar yoritilgan³⁵.

5-guruhga kiruvchi xorijiy tadqiqotlarni V.V.Sokolov, Ye.A.Simanovich, Ye.A.Glushenko, Ye.V.Dolgix, Stefani Xonchellarning ilmiy ishlari va maqolalari tashkil qiladi.

Xorij olimlaridan V.V.Sokolovning tadqiqotida³⁶ imperiyaning o'lka qishloq xo'jaligida olib borgan mustamlaka siyosati va uning uzumchilikka qilgan ta'siri yoritilgan bo'lsa, Ye.A.Simanovichning ilmiy ishida³⁷ Shimoliy Kavkazda uzum yetishtiruvchi va vino tayyorlovchi xo'jaliklar faoliyati, uzum va vino navlari haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'lib, ulardan o'lkada mazkur masalalarga oid ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlilda foydalanildi.

Xorij olimalaridan Ye.V.Dolgix maqolasida Rossiyada uzumchilik va vinochilik masalalarida ishlatilgan o'lchov birliklari o'z aksini topgan bo'lib, tadqiqotimizda o'rganilayotgan davr manbalarining aksariyatida uzum va vinolarning og'irligi yoki qiymatlarini o'lchashda asosan rus o'lchov birliklari ishlatilganligini hisobga olsak, ushbu maqola mazkur o'lchov birliklari ma'nolarini tushunishda yordam beradi³⁸.

Stefani Xonchellning ilmiy ishida³⁹ O'rta Osiyoda qadimiy ichimlik turlari, Temuriylar davrida ichimlik mahsulotlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda uzumchilik sohasining tarixiy rivojlanish bosqichlari”** nomli ikkinchi bobining birinchi paragrafida uzumchilik va uzum mahsulotlarini tayyorlash sohasining tarixiy rivojlanish bosqichlari tadqiq qilingan. Geopaleontologik va amfilografik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, O'rta Osiyoda 6 ming yillar avval ham uzumchilik va vino tayyorlash uslublari mavjud bo'lgan. Tabiiy yer unumdorligi va yilning 4000-5000°C issiq harorati uzumchilikning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyoda uzum va uzum mahsulotlarini yetishtirish Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan ancha oldin ham mavjud bo'lgan. Xususan, zardo'shtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ning qadimiy sahifalarida moddiy hayot ne'matlariga (ular sirasiga chorvani ko'paytirish, sug'oriladigan dehqonchilik, tokchilikdan tortib yirik tadbirkorlikkacha) alohida ahamiyat qaratilgan. Vino o'sha paytda hukmron

³⁵ Хайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 52-84.

³⁶ Соколов В.В. Туркестанский край в составе Российской империи, вторая половина XIX в. – февраль 1917 г.: Проблемы социально-экономического и общественно-политического развития: дисс. доктор ист. наук. – М., 2002. – С. 32.

³⁷ Симанович Е.А. Развитие виноградарства и виноделия на Северном Кавказе во второй половине XIX в. – 1914 г. Специальность 07.00.02 – Отечественная история. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Краснодар, 2005. – 28 с.

³⁸ Долгих Е.В. К истории повседневности: очерк потребления спиртных напитков в России (Конце XV в. – 1936 г.) // Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2015. № 5/6. – С. 14-63.

³⁹<https://www.caa-network.org/archives/22267/istoriya-pyushhego-mogola-kultura-alkogolya-u-timuridov-zentralnoj-azi>.

bo‘lgan zardo‘shiylik dinining marosimlaridagina ishlatilish bilan cheklanib qolinmagan⁴⁰.

Manbalarda qayd etilishicha, Parfiya podsholigi davrida O‘rta Osiyo aholisi davlat xazinasiga soliq sifatida katta miqdorda uzumdan tayyorlangan vino mahsulotini yuborib turgan⁴¹.

Ayniqsa, yunon antik manbalari va diniy afsonalarida vino ko‘p uchraydi. Yunon afsonalarining asosiy qahramoni Dionis haykalining sochi uzum boshiga o‘xshash osilgan holda va boshiga tok uzumlaridan toj bilan, qo‘lidagi idish (yunon tilida “fial”, “pial” yoki “piol”) ni labiga yaqin tutgan holda tasvirlanadi. Rimliklar va finikiyaliklar o‘z xudolarini sharaflash bayramlarida asosan vino ichishgan va u diniy ichimlik tusini olgan. Arxeologlar o‘zbek xalqining kundalik turmushida keng qo‘llaniladigan “piyola” so‘zi va idishi aslida eramizdan oldingi III-II asrlarda yunon tilidan kirib kelgan va piyola, amfora – qo‘shquloq va mustaxara kabi idishlarni Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari natijasida yunon va mahalliy urf-odatlarining uyg‘unlashuvi bilan izohlashadi⁴².

Eramizning II asrida O‘rta Osiyoda bo‘lgan Xitoy sayyohi Farg‘ona vodiysida uzumdan vino tayyorlash jarayoniga bevosita guvoh bo‘lgan va u: “Ular vinosini otlar bedani hush ko‘rgani kabi sevadilar, vinolarni uzoq yil buzilmasdan saqlashni biladilar”⁴³, – deb yozadi. Shuningdek, tadqiqotchilarning fikricha Xitoy sayyohi tomonidan Turkiston o‘lkasidan Xitoyga olib borilgan va u yerda yetishtirila boshlagan o‘simliklardan biri tok bo‘lsa, ikkinchisi beda hisoblangan⁴⁴.

Uzumchilik va uning tarixiga oid ma’lumotlar arxeologik yodgorliklarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, Samarqand yaqinidagi Tali Barzu manzilgohida VIII asrga taalluqli qatlamda, shuningdek, Bolaliktepa qal’asida (V-VII asrlar) uzum urug‘lari topilgan bo‘lsa, Afrosiyobda (Samarqand) VII-VIII asrlarda Sug‘diyona hukmdorlaridan birining saroy devorini rassom tok novdalari va uzum boshlari bilan g‘oyat nafis bezatganligi o‘z aksini topgan⁴⁵.

Ilk o‘rta asrlargacha uzumchilik va vino tayyorlash gullagan davr edi. VII-VIII asrlarda arablar xalifaligi tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi natijasida qishloq xo‘jaligida tanazzul boshlangan. Islom dinida spirtli ichimlik iste‘mol qilish taqiqlanganligi sababli uzumdan turli uslublarda mayiz va boshqa shirinliklar tayyorlash rivojlandi. Lekin tez orada soha o‘zini qayta tiklagan, o‘lkada Samarqand, Buxoro, Ustrushona, Shosh, Farg‘ona kabi obod va go‘zal shaharlar bo‘lib, Farg‘ona tog‘larida uzum, yong‘oq, olma va barcha mevalar yetishtirilganligi haqidagi manbalarda keltirilgan ma’lumotlar bundan dalolat beradi⁴⁶.

⁴⁰ <https://uzwine.uz>; Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. – Том 527, 1897. – С. 1-49.

⁴¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 46.

⁴² Ртвеладзе Э.В. Римляне на трассах Великого шелкового пути / <http://fati.uz>site>.

⁴³ Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX начала XIII вв. – Ташкент: Ўзбекистон, 1996. – С. 225.

⁴⁴ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 194-196.

⁴⁵ Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – Б. 5.

⁴⁶ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннахр. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камалиддинов. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 27-30; Юсупов Х.С., Акчурин Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – Б. 8.

Somoniylar davrida O'рта Osiyoning serunum vohalarida bog'dorchilik va uzumchilik ham ancha rivoj topgan bo'lib, uzumdan mayiz, shinni, sirka va musallas kabi mahsulotlar tayyorlangan⁴⁷.

XIII asrda mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga hujumi natijasida bosib olingan yerlar xarobaga aylandi, bu esa o'z navbatida uzumchilikning ham inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. Lekin tez orada qishloq xo'jaligining boshqa sohalari kabi uzumchilik ham asta-sekin tiklana boshlagan. Xususan, O'рта Osiyoga kelgan Venetsiyalik sayyoh Marko Poloning estaliklarida Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda bog'u-uzumzorlar bilan bezalgan ajoyib mavzalar bo'lganligi, mahalliy vino ichimligi o'zining xushta'mligi va oliy sifati bilan sayyohni lol qoldirganligi ta'kidlanadi⁴⁸.

XIV-XV asrlarda Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari davrida uzumchilik qayta tiklandi va gullab-yashnadi. Bu davrda turli xil ichimliklar, jumladan, sharob, qimiz va musallas tayyorlangan va iste'molda bo'lgan⁴⁹.

Xonliklar (Xiva, Buxoro, Qo'qon) davrida diniy mutaassiblikning kuchayishi va islom dinining talablariga muvofiq uzumdan tayyorlanadigan may, musallas va boshqa shu kabi odamni sarxush qiladigan ichimliklarni tayyorlash hamda ularni iste'mol qilish taqiqlanib, o'lkada asosan uzumning xo'raki va mayiz qilinadigan navlarigina qoldirilgan, ichimlik olishga ixtisoslashgan uzum navlari esa yo'q qilingan⁵⁰.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida mahalliy uzum navlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lib, mintaqada azal-azaldan husayni, buvaki, charos, kishmish, sultoni, toifining Xojahroriy va Qarshi, doroyi, chopangur, shivirg'oniy kabi uzum navlari yetishtirib kelingan. Uzumchilik borasida o'lkaning Samarqand, Urganch, Sharqiy Buxoro, Qarshi, Toshkent mirishkorlari yuqori natijalarga erishishgan⁵¹.

O'lka uzumchiligi rivojida mashhur qishloq xo'jaligi mutaxassisi, Respublikada xizmat ko'rsatgan agronom va uzumchi Rizamat Musamuhamedovning xizmatlari katta ekanligini ham alohida e'tirof etib o'tish lozim. Rizamat Musamuhamedov Nimrang, Tayfi, Xusayni, Vassarga, Sultoni, Kattaqo'rg'oni, Oq kishmish, Qora kishmish, Soyaki, Buvaki va boshqa mahalliy uzum navlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tasniflash bilan birga uzumlarni o'stirishning yangi usullaridan "Voish" tizimi bo'yicha soyabonli vertikal shpalarlarga ko'tarib parvarishlashni tavsiya etgan⁵².

⁴⁷ Хайдаров Х., Усмонов Қ. Жиззах тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2009. – Б. 54.

⁴⁸ Поло М. Книги о разнообразии мира. rus.azattyq.org/a/marco_polo_travels...mongolia...

⁴⁹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 191-193; <https://www.caa-network.org/archives/22267/Istoriya-pyushhego-mogola-kultura-alkogolya-u-timuridov-czentralnoj-azii.>; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 86.

⁵⁰ Муртазаева Р.Х ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 312.

⁵¹ Хайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 72-73.

⁵² Файзиев Ж.Н. Мўъжизакор боғбон Ризамат Мусамухамедов томонидан ишлаб чиқилган, узум етиштиришнинг муҳим усуллари. Мевачилик ва узумчиликнинг ривожланишида илм-фан ютуқлари республика анжумани // – Тошкент, 2022 йил 15 июнь. – Б. 48; Мусамухамедов Ризамат. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6 том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 144.

Turkiston o'lkasida yetishtirilgan mahalliy uzum navlari o'zining rangi, ko'rinishi, ta'mi, hosildorligi va boshqa shu kabi xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlangan. Masalan, Husayni – mevasi oq rangda bo'lib, ko'rinishi katta-katta cho'zinchoq, ta'mi shirin; Chillaki – mevasi ko'rinishi cho'zinchoq va ta'mi nordon; Oq Kishmish – mevasi mayda va dumaloq, donsiz va ta'mi shirin; Doroi – mevasi rangi qizil, ko'rinishi dumaloq va ta'mi shirin; Charos – mevasi qora va ta'mi shirin, undan sharob ham olinadi; Buvaki – mevasi ko'rinishi dumaloq, rangi yashil va ta'mi shirin, vinochilik uchun ham yaxshi nav hisoblanadi⁵³.

Xullas, Turkiston o'lkasida uzumchilik o'ziga xos tarixiy rivojlanish bosqichiga ega bo'lib, uzumning 20 dan ortiq mahalliy navlari yetishtirib kelingan va ular rangi, shakli, ta'mi, hosildorligi hamda vino berish kabi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida o'lkaga yangi uzum navlarining keltirilishi va ularning transformatsiyasi kabi masalalar yoritilgan bo'lib, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, rus davlati bilan savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi natijasida imperiyaning markaziy bozorlarida o'lkada yetishtirilgan tabiiy uzum va uzum mahsulotlarga bo'lgan talab ham oshganligi tahlil qilingan.

Imperiya hukumati Turkistonga qishloq xo'jaligi sohasida tajriba va bilimga ega bo'lgan ma'mur va amaldorlar, tabiatshunos olim va agronomlarni safarbar qila boshlagan. Mustamlaka hukumat amaldorlar, olim va mutaxassislarining fikrlaridan kelib chiqib, 1897-yil Toshkentda "Turkiston tajriba qishloq xo'jalik stansiyasi"ni ochgan⁵⁴.

Stansiya tajriba muassasasi sifatida R.R.Shreder kelgan paytdan boshlab faol ishlay boshlagan. Shreder bog'dorchilikka katta e'tibor berib, mazkur stansiyada olma, nok va boshqa meva turlarining 200 dan ortiq navlarini sinovdan o'tkazgan, ularning gullash va meva berish dinamikasi tadqiq etilib, changlatuvchi navlarni tanlash, mevali daraxtlarning turli kasallik va zararkunandalarga qarshi immunitetini kuchaytirish, shuningdek, navlarning sovuqqa va boshqa noqulay iqlim sharoitlarga bardoshlilik borasida tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Turkistonga xorijdan ilk bor yangi uzum navlari 1868-yilda Toshkentga olib kelingan bo'lsa, keyinchalik bu borada Samarqand asosiy markazga aylangan⁵⁵. Vaqt o'tishi bilan o'lkaga jalb etilgan rus mutaxassislarining qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik sohasidagi ishlari jonlanib, Rossiyadan kelgan har bir bog' egasining 25-30 desyatina* gacha sinov-sanoat uzum bog'lari bo'lgan va ularda uzumning

⁵³ О винограде и виноделия в Туркестанском крае // Туркестанский сборник. – Том 57, 1872. – С. 388; О'zMA, I.9-jamg'arma, 1-ro'xat, 22-ish, 6-6 a varaqlar; Тимаев К. Среднеазиатское виноградарство // Туркестанский сборник. – Том 520, 1896. – С. 43-44; Маев Н.А. Туркестанская выставка. – Ташкент: Типолиграфия С.И.Лахтина, 1890. – С. 29.

⁵⁴ Хайитов Ж.Ш. Туркестонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 72-73, 126.

⁵⁵ О культуре винограда // Туркестанский сборник. - Том 521, 1896. – С. 94; Курахмедов А.Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX – начала XX вв. (по материалам «Туркестанского сборника»). Специальность 07.00.02 – История Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2001. – С. 18.

* Desyatina (lot. decime) – metrik o'lchov tizimi qabul qilingunga qadar Rossiyada qo'llanilgan asosiy yuza o'lchovi. 2400 kv. sarjin (1,09 ga) ga teng. XVIII asr oxiri – XIX asr boshida xo'jalik desyatinesi qo'llanilib, u 3200 kv. sarjin (1,45 ga) ga teng bo'lgan / <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/desyatina>.

40 dan ortiq yangi navlari bilan birgalikda ayrim mahalliy navlar ham parvarishlana boshlangan⁵⁶.

Shuningdek, XX asr boshlarida Samarqand viloyati uyezdlarida 50 desyatina yer maydonida uzumning Qora Ptiverdo, Frank-mens, Izabella, Kaberno-Savinon, Oq shampan, Risling, Sotern, O-Porto, Modern-Malvazi, Lakrima-xristi, Oq muskat kabi chetdan keltirilgan yangi navlari parvarishlanib, tez orada yangi uzum navlari yetishtiriladigan bog'lar maydoni kengayib borgan⁵⁷. Ayniqsa, Samarqandning Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror, Urgut, Yangiqo'rg'on, Angor volostlarida uzumning yirik plantatsiyalari bo'lgan⁵⁸.

O'lka chetdan keltirilgan yangi uzum navlari o'zining bir qator xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlangan. Masalan, Matros nomli yangi uzum navi o'zining sovuqqa chidamliligi, kasalliklarga bardoshliligi, shuningdek, hosildorligi va vino berish miqdori yuqoriligi bilan boshqa yangi va mahalliy uzum navlaridan ajralib turgan⁵⁹.

O'lka bozorlarida uzumning narx-navolari ularning navi va sifatiga qarab turlicha bo'lgan. Masalan, Samarqandda bir pud* uzumning narxi o'rtacha 20-50, Farg'onada 40-50, Toshkentda 70 kopeekdan – 1 rubl 20 kopeekgacha, Toshkent shahrida esa 2-2 rubl 60 kopeekgacha bo'lgan⁶⁰.

Uzum bog'lariga ishlov berishda an'anaviy mehnat qurollaridan omoch, ketmon, yog'och mola, uzumni o'stirishda yog'och so'rildan foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik zamonaviy mehnat qurollaridan plug, ketmon, lopatka, temir borona kabilardan foydalanilib, uzum temir so'rilar va ayrim hollarda sim tortilgan beton ustunlarda o'stirilgan. Uzum kasalliklariga qarshi kurashishda esa tutatish, zararlangan uzum daraxti yoki novdalarini kesib tashlash va yoqib yuborish kabi an'anaviy usullardan foydalanilgan bo'lsa, mazkur davrdan kimyoviy preparatlar va dorilash uskunalari qo'llanila boshlangan.

Xullas, Turkiston o'lkasida uzumchilik va uzum mahsulotlarini tayyorlash o'ziga xos tarixiy rivojlanish bosqichiga ega bo'lib, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida o'lkada uzumchilikni zamonaviy shaklda rivojlantirilishiga e'tibor kuchaydi va uzumchilik sanoat darajasiga ko'tarildi.

Dissertatsiyaning **“Turkistonda vinochilik sanoatining tashkil topishi, o'lka ichki va tashqi savdosida uzum hamda vino mahsulotlarining o'rni”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafidan Turkiston o'lkasida vinochilik sanoatining vujudga kelishi tadqiq etilgan. “Vino” so'zi sanskrit tilida “yoqimli suyuqlik”, lotincha “winum” – “aylanuvchi, o'raluvchi” degan ma'nolarni bildiradi. Vinochilik qadimdan rivojlangan bo'lib, u nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali xo'jalik sohalaridan biri hisoblangan.

⁵⁶ Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 237-239; Пулло А. К вопросу о винограде // Туркестанский сборник. Том 467, 1908. – С. 59-60.

⁵⁷ Виноделье в Туркестане // Туркестанский сборник. – Том 522, 1896. – С. 163; Стекольников И. Виноградарство и виноделие в Туркестане // Туркестанский сборник. – Том 454, 1908. – С. 136.

⁵⁸ Хайитов Ж.Ш. Туркестонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 79; O'zMA, I.36-jamg'arma, 1-ro'uyhat, 3298-ish, 43-varaq.

⁵⁹ Невесский М. Список деревьев и кустарников, произрастающих в Самаркандской области // Туркестанский сборник. – Том 525, 1894. – С. 177-183.

* Pud – og'irlik o'lchov birligi, 1 pud-16,38 kg, 40 funtga teng / <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/pud>.

⁶⁰ O'zMA, I.1-jamg'arma, 15-ro'uyhat, 475-ish, 39, 59-varaqlar.

O'lkada uzumdan vino tayyorlash sanoat shaklida zamonaviy ko'rnishda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgunga qadar ham mavjud bo'lgan. Dastlabki paytlarda uzumdan sharob, musallas kabi ichimliklar xonaki usulda tayyorlangan bo'lsa, keyinchalik ko'proq sharbat olish maqsadida maxsus qurilmalar ham ixtiro qilingan. Xususan, Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqa harobalaridan uzum sharbatini siqib chiqarishga mo'ljallangan maxsus moslama – tarapan (tosh taxta) topilgan bo'lib, undan katta aylananing ichiga uzum hosili solinib, so'ngra ular ustiga og'ir tosh bostirilgan. Yuk og'irlashgani sayin uzum sharbati toshga o'yilgan maxsus ariqchalar orqali kichik aylanaga oqib tushgan va bu yerda sharbat tindirilib, tozalanib xumlarga yoki boshqa idishlarga solingan⁶¹.

Vinochilik sanoati vujudga keltirilgan dastlabki davrlarda Turkiston o'lkasida bu soha juda sust rivojlangan. O'lkada vinochilikni muvaffaqiyatli rivojlantirishning birinchi sharti – tayyorlangan vino mahsulotlarini sotish uchun yangi bozorlarni ochishdir, deyilgan edi manbalarda⁶².

“Turkiston o'lkasida paxtachilik va ipakchilikdan keyin eng ko'zga ko'ringan tarmoq – vinochilik hisoblanib, u Turkistonning kelajakdagi boyligi. Vinochilik hali boshlang'ich bosqichida. O'lkada zo'r mahalliy uzum navlari mavjud bo'lib, bu hech qanday shubha tug'dirmaydigan haqiqatdir”⁶³, – deya ta'kidlagan edi N.A.Mayev.

Darhaqiqat, Turkiston o'lkasi, ayniqsa, Samarqand viloyati uzum yetishtirish va vino tayyorlashda qulay hudud ekanligi sababli mustamlaka hukumat tomonidan bu yerda vinochilikni rivojlantirishga har tomonlama e'tibor qaratila boshlangan. Hatto chet mamlakatlarning uzumchilik va vinochilik bilan shug'ullanuvchi nufuzli firmalari bilan, xususan, Qrimdagi Magarach enoximiya laboratoriyasida Samarqand viloyati tuprog'i, uzumlari va undan tayyorlangan vino mahsulotlarining kimyoviy tarkibi hamda sifatini aniqlash borasida o'zaro ilmiy hamkorliklar ham yo'lga qo'yila boshlangan⁶⁴.

Tez orada o'lkada vinochilik rivojlanib, hatto xorijiy davlatlarda tashkil etilgan turli ko'rgazmalarda o'zining vino mahsulotlari bilan ishtirok etgan o'lka mutaxassislaridan Filatov o'n uchta oltin va sakkizta kumush medalni qo'lga kiritgan⁶⁵. Filatovdan tashqari Samarqandda I.V.Pavligo va I.I.Gabergauerlar ham vinochilik bilan shug'ullanishgan bo'lib, Turkiston ko'rgazmasida namoyish etilgan ularning vino mahsulotlari barchada yaxshi taassurot qoldirgan va e'tirof etilgan⁶⁶.

Bundan tashqari o'lkada mahalliy va xorijlik mayda vino ishlab chiqaruvchilar ham faoliyatda bo'lgan. Xususan, Samarqand viloyatidagi ana shunday korxonalarda 1894-yilda 130.456 pud uzumdan 32.614 pud vino tayyorlangan bo'lib, ushbu

⁶¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Vino-araq_sanoati.

⁶² Юсупов Х.С., Акчуринов Р.К., Ташкенбоев А.Х. Суғдиёна ноз-неъматлари. – Самарқанд, 2001. – Б. 9.

⁶³ Маев Н.А. Туркестанская выставка. – Ташкент: Типолиотография С.И.Лахтина, 1890. – С. 30.

⁶⁴ Слущкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. – Том 527, 1897. – С. 5-22.

⁶⁵ <https://vesti.uz/filatovskij-brend-samarkanda>.

⁶⁶ Маев Н.А. Туркестанская выставка 1886 г. – Ташкент: Издание Туркестанского Отдела Императорского Российского Общества Садоводства, 1886. – С. 53.

mahsulotning katta qismi mahalliy tadbirkor Mulla Mir Nizomiddin Hoji Mir Abdul G'affor Hojiyev korxonasida tayyorlanganligi manbalarda qayd etilgan⁶⁷.

Ushbu davrda yirik vino zavodlari va mayda korxonalarda uzumdan turli nav va nomdagi vino mahsulotlari tayyorlangan. Masalan, vino mahsulotlari rangiga ko'ra "oq" va "qizil"; quvvatiga qarab "desert", "o'rta" va "kuchli"; uzum navlariga qarab "Charos", "Muskat", "Madeyra"; ishlab chiqaruvchilar nomiga ko'ra "Ivanov", "Pervushin" kabi nomlar bilan atalgan.

Manba va adabiyotlarda qayd etilishicha, Toshkentda Platon Shevchenko, injener-texnolog N.I.Pervushin, Adolf Moshe, N.I.Ivanov, Ya.Ya.Ivanov, I.Barsukov, I.P.Belokolokov zavodlarida bir yilda o'rtacha 10 000 chelak, Farg'ona vino zavodlarida esa 10-11 ming chelak mahsulot tayyorlangan⁶⁸. O'lkada vino mahsuloti og'irligini o'lchashda "chelak" atamasi ishlatilgan bo'lib, 1 chelakning o'rtacha og'irligi 12 litrga to'g'ri kelgan⁶⁹.

O'lkada vino zavodini ochuvchilar uchun mustamlaka hukumat tomonidan ishlab chiqilgan 10 moddadan iborat huquqiy nizomga qat'iy amal qilish ham belgilab qo'yilgan. Mazkur nizomga ko'ra, o'lkada vino zavodini qurish uchun shaxsan Turkiston general-gubernatori ruxsatnomasini olishi, shuningdek, mazkur Nizomning 7-moddasiga ko'ra, zavod qurish uchun joy, albatta, shaharning ruslar yashaydigan qismidan tanlanishi yoki uning ushbu shaharda sotuv do'koni bo'lishi shart bo'lgan⁷⁰.

O'lka vino zavodlarining yillik pul aylanma mablag'i o'rtacha 1 237 857 rublni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Samarqand viloyatida jami 24 ta zavodning yillik mablag' aylanmasi 1 040 532 rubl, ishlab chiqarish quvvati 84 100 chelak; Sirdaryo viloyatida jami 3 ta vino zavodning yillik mablag' aylanmasi 195 325 rubl, ishlab chiqarish quvvati 15 800 chelak, Farg'ona viloyati bo'yicha 1 ta zavodning yillik mablag' aylanmasi 2000 rubl, ishlab chiqarish quvvati 100 chelakni tashkil etgan⁷¹.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida uzum hamda vino mahsulotlari savdosi masalasi yoritilgan. O'lka bozorlarida vinoning narx-navosi ham uning quvvati va talabga ko'ra turlicha bo'lgan. Xususan, kuchsiz vinoning 1 chelagi o'rtacha 1 rubl 40 kopekdan – 5 rublgacha, o'rta quvvatdagisi 8-10 va yuqori quvvatli vino 15-18 rubl atrofida sotilgan⁷².

O'lkada tayyorlangan vino mahsulotlarining katta miqdori Samarqand viloyati vino zavodlari hissasiga to'g'ri kelib, bu o'lka bo'yicha jami vino mahsulotlari umumiy hajmining 84,1 %ni, Sirdaryo viloyati 15,8 %ni, Farg'ona viloyati ulushi esa atigi 0,1%ni tashkil etgan.

⁶⁷ Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. – Том 527, 1897. – С. 47.

⁶⁸ Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 288-289; O'zMA, I.36-jamg'arma, 1-ro'xat, 3545-ish, 219-varaq; O'zMA, I.7-jamg'arma, 1-ro'xat, 3178-ish, 141-142-varaqlar.

⁶⁹ Долгих Е.В. К истории повседневности: очерк потребления спиртных напитков в России (Конце XV в. – 1936 г.). Вестник Московского университета. Серия 8. История. 2015. – № 5/6. – С. 46.

⁷⁰ O'zMA, I.1-jamg'arma, 27-ro'xat, 1558-ish, 1-varaq.

⁷¹ Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1908. – С. 295; Заорская В.В., Александер К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. – Петроград, 1915. – С. 340.

⁷² Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Ташкент: Типолитография О.А.Порцева, 1912. – С. 378-379.

Turkiston o'lkasida yetishtirilgan uzum va vino mahsulotlari ichki bozorlardan tashqari Rossiya va hatto Yevropaning bir qator davlatlariga eksport qilingan. Xususan, birgina 1892-yilda o'lkadan Kaspiyorti temiryo'li orqali Rossiya va Yevropa mamlakatlariga 412 000 pud kishmish uzumi jo'natilgan. Rossiyaga chiqarilgan uzum va uzum vinosi 1888-yilda 70 597 pud bo'lgan bo'lsa, keyingi besh yil davomida bu ko'rsatkich besh marotabaga oshib, 1892-1893-yillarda 451 018 pudni tashkil etgan⁷³.

O'lkada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmining o'sishi o'z navbatida maxsus jihozlangan vagonlarga bo'lgan ehtiyojni ham oshirgan. Mustamlaka hukumat bu masalani ham tezda hal etadi va 1906-yilda 10, 1907-yilda 15, 1908-yilda 48 hamda 1909-yilda 98 ta ana shunday maxsus jihozlangan vagonlar o'lka va imperiya yo'nalishidagi temiryo'l qatnovlarida mahsulotlarni tashiy boshlagan⁷⁴.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Turkiston o'lkasi uzumchiligi va vinochiligi tarixi, bu sohadagi an'anaviylik va undagi o'zgarishlar, shuningdek, o'lkada vinochilik sanoatining vujudga kelishi kabi masalalarni yoritishda arxiv materiallari va "Turkiston to'plami"da jamlangan maqolalar hamda davriy adabiyotlar muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

2) O'lka uzumchiligi o'ziga xos tarixga ega bo'lib, qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari uzum va undan turli mahsulotlar tayyorlab kelganlar. Arab xalifaligi va xonliklar davrida islom ta'limotida spirtli ichimliklar iste'moli taqiqlanganligi sababli uzumchilik ko'proq tabiiy iste'mol va boshqa turli shirinliklar tayyorlash tomonga ixtisoslashgan. Mo'g'ullar hukmronligi davrida inqirozga uchragan uzumchilik Amir Temur va uning vorislari davrida qayta tiklanib, gullab-yashnagan.

3) Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga kelib uzumchilik zamonaviy ko'rinishda rivojlantirildi va u sanoat darajasiga ko'tarildi. Mustamlaka hukumatning maqsadi o'lkani mumkin qadar tezroq xomashyo bazasi va sanoat mollari sotadigan bozorga aylantirishga qaratilgan bo'lsa-da, o'lkaga jalb etilgan soha mutaxassislari yangi ekin navlarini mahalliyashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi sohasini ilmiy asosda yo'lga qo'yishda samarali ishlarni bajardilar.

4) O'lkada mahalliy uzum navlarining 20 dan ortiq turi mavjud bo'lib, ular o'zining ta'mi, ko'rinishi, hosildorligi va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlangan. Shuningdek, ushbu davrda o'lkaga Rossiya va Yevropadan 40 dan ortiq yangi uzum navlari ham keltirilib, ular bog'dorchilik tajriba-sinov stansiyalari va maydonlarida, shuningdek, havaskor bog'bonlar uzum plantatsiyalarida sinovdan o'tkazilgan va mahalliyashtirilgan.

⁷³ Хайитов Ж.Ш. Туркестонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 75; Путеводитель по Туркестану и Средне-Азиатской железной дороги. Под ред. Д.И.Дмитриева – Мамонова. – Санкт-Петербург, 1903. – С. 34.

⁷⁴ Вывоз сушеных фруктов и виноградного вина // Туркестанский сборник. – Том 535, 1909. – С. 624-625.

5) Uzum bog'lariga ishlov berishda an'anaviy mehnat qurollaridan omoch, ketmon, uzumni o'stirishda yog'och so'rilardan, zamonaviy uzumchilikda esa plug, ketmon, lopatka, temir borona va mola kabi mehnat qurollaridan foydalanilib, uzum temir so'rilar va ayrim hollarda sim tortilgan beton ustunlarda o'stirilgan. Uzum kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy preparatlar va dorilash uskunalari kabi zamonaviy usullar qo'llanilgan.

6) Uzumchilikda maydon, og'irlik va qiymat borasida an'anaviy o'lchov birliklaridan tanob, pud va botmon hamda tanga atamali ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik sohaga desyatina, litr, chelak, rubl va kopeek kabi zamonaviy atamalar kirib kelgan va ulardan foydalanilgan.

7) O'lkada dastlab XIX asrning 60-yillarida ilk vino zavodiga asos solingan bo'lsa, keyinchalik XX asr boshlariga kelib ularning soni 60 dan oshib ketgan. Tez orada o'lkada vinochilik rivojlanib, mahalliy va hatto xorijiy davlatlarda tashkil etilgan turli ko'rgazmalarda vino mahsulotlari bilan ishtirok etgan o'lka mutaxassislari sovrinli o'rin va medallarni qo'lga kiritgan.

8) Uzumchilikning rivojlanishi va vinochilik sanoatining shakllantirilishi o'z navbatida uzum va vino mahsulotlarini nafaqat ichki bozorlarga yetkazib berish, balki xorijga eksportning kengayishida ham muhim ahamiyat kasb etib, uzum va vino mahsulotlari Rossiyaga, shuningdek, Yevropaning bir qator davlatlariga eksport qilina boshlangan.

Tadqiqot ishi natijalari bo'yicha chiqarilgan xulosalar quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surishga asos bo'ldi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga oid ustuvor vazifalarni amalga oshirishda nazariy-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash.

Mamlakatimizda agroturizmni targ'ib qilish hamda sohani rivojlantirish maqsadida uzumchilik keng rivojlangan viloyatlar va ularning tabiati, hududda joylashgan uzumchilik bog'lari va dam olish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlagan targ'ibot materiallari, yo'l ko'rsatkichlar, elektron xarita va qo'llanmalar tayyorlash, turistik tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish.

Jahonning rivojlangan davlatlari bilan hamkorlikda mamlakatimiz imkoniyatlarini hisobga olib, tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish maqsadida uzumchilik va vinochilik brendini targ'ib qiluvchi hujjatli filmlar, fotoalbomlar, videorolik hamda bukletlar yaratish.

Tadqiqot natijalaridan ko'rilayotgan davr Vatanimiz tarixini o'rganish va o'qitishda, shuningdek, ishda ilgari surilgan ilmiy g'oya va olingan xulosalar asosida mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va iqtisodiy tarixiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar tayyorlashda nazariy qo'llanma sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/27.02. 2021.Tar.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ**

**КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТУПЧИЕВ УСМОН СИНДОРОВИЧ

**ИСТОРИЯ ВИНОГРАДАРСТВА И ВИНОДЕЛИЯ В ТУРКЕСТАНЕ
КОНЦА XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА**

07.00.01. – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за №B2019.4. PhD/Tar.575.

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Шадманова Санавар Базарбаевна доктор исторических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хушваков Наби Олимович доктор исторических наук Муминова Гавхар Эсановна доктор исторических наук, профессор
Ведущая организация:	Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2023 г. в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, Карши, улица Кучабаг 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за номером _____). (Адрес: 180103, Карши, улица Кучабаг 17. Тел.: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 года
(протокол реестра № _____ от «___» _____ 2023 года).

Б.Ж.Эшов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.и.н., профессор

Н.Н.Ражабова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.и.н., доцент

Ю.А.Эргашев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Исследование развития и прогресса сельского хозяйства в истории народов Узбекистана имеет важное значение. С древних времен интеграция евразийских народов гармонизируя в экономике и хозяйстве, привели к образованию замечательных симбиозов в экономической жизни. Положительные новости произошли в экономике и народном хозяйстве, например, положительные изменения в процессах виноградарства и переработки продукции из него.

На сегодняшний день одновременно с ускорением процессов глобализации в мире наряду с экономическими кризисами и нехваткой продовольствия на нашей планете происходят и такие климатические изменения, как засуха. Согласно резолюции №70, принятой Генеральной Ассамблеей ООН по устойчивому развитию на Саммите в сентябре 2015 года, было отмечено, что в сложной ситуации в мире продовольственное обеспечение и продовольственная безопасность могут быть решены за счет развития сельского хозяйства и связанных с ним пищевых производств.

Во многих странах мира большое внимание уделяется развитию виноградарства, которое является одним из засухоустойчивых и урожайных видов сельскохозяйственных культур. Изучение истории развития виноградарства и виноделия на примере именно одного историко-географического региона Узбекистана, разработка теоретических и практических рекомендаций по развитию отрасли на основе полученной информации является одним из наиболее актуальных вопросов.

В период глобальных климатических изменений, происходящих в процессе интеграции и глобализации народов мира в нашей стране осуществляется ряд положительных дел по устранению актуальной проблемы продовольственной безопасности. В частности, в ряде указов и постановлений, принятых по инициативе Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева, а также на заседаниях обеспечение продовольственной безопасности страны, наполнение рынка качественными, экологически чистыми, дешевыми продуктами питания, повышение экспортного потенциала, развитие садоводства и виноградарства, резкое увеличение доходов за счет переработки, рационального использования воды, современного производства, в совершенстве освоившего агротехнологии и потребность в фермерах, способных привлекать инновации, поставлена в приоритет и эти задачи осуществляются поэтапно¹.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит при выполнении поставленных задач в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-5303 от 16 января 2018 года «О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны», Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4161 от 5 февраля 2019 года «Об организации

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги “Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5303 сон Фармони; Президент Ш.М.Мирзиёев раислигида 2021 йил 24 февраль куни қишлоқ ва сув хўжалиги соҳасида жорий йилда амалга ошириладиган устувор вазифалар муҳокамаси юзасидан ўтказилган видеоселектор йиғилиши; Президент Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. 2018 йил, 29 декабрь.

деятельности агентства по развитию виноградарства и виноделия при министерстве сельского хозяйства Республики Узбекистан», №ПП-5200 от 28 июля 2021 года «О дополнительных мерах по внедрению кластерной системы в развитие виноградарства, государственной поддержке привлечения передовых технологий в данную сферу», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №271 от 30 марта 2019 года «Об утверждении положений об агентстве по развитию виноградарства и виноделия при министерстве сельского хозяйства Республики Узбекистан и фонде поддержки виноградарей и виноделов агентства по развитию виноградарства и виноделия при министерстве сельского хозяйства Республики Узбекистан» и выполнению задач, предусмотренных другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с программным направлением развития науки и техники республики 1. «Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. Изучение истории виноградарства и виноделия в нашей стране является одним из новых направлений в системе научных исследований. Научную литературу относительно темы данной диссертации необходимо исследовать с привлечением источников и литературы, созданной с древнейших времен до времен Российской империи по истории виноградарства и виноделия страны, произведения колониального периода Российской империи, литературы, написанной в годы советской власти, научных исследований в Узбекистане и зарубежных странах за годы независимости.

В источниках первой группы, прежде всего сочетание² образа Диониса, ангела «виноградарства и виноделия», встречающегося в письменных источниках древности, с широко распространенным в Средней Азии Сиёвущем анализируется на основе археологических материалов. Хотя производство вина было строго запрещено после введения ислама, восточные миниатюры изображают правительственных чиновников и интеллектуалов, пьющих мусаллас или вино в местных глиняных сосудах. Кроме того, в письменных источниках средневековья³, а также в ряде литературы встречаются материалы, относящиеся к истории виноградарства и виноделия⁴.

